

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

YALPI ICHKI MAHSULOTNI HISOBBLASH USULLARI

Umirov A. T.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Iqtisodiy xavfsizlik” kafedrasи dotsenti, PhD

Abdukarimov Chetin Abduqahhorovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Moliya” fakulteti 2-kurs

MMT-78 guruh talabasi

Bugungi kunga kelib Milliy hisobchilik tizimini qo‘llaydigan deyarli barcha davlatlarda yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkich sifatida tan olindi.

1993-yilda qabul qilingan BMT MDHning yangi talqiniga ko‘ra Yalpi ichki mahsulot (YaIM) tushunchasiga aniqliklar kiritildi.

Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri bu - yalpi ichki mahsulotdir. Yalpi ichki mahsulot - bu muayyan davr mobaynida (bir yil) kim tomonidan yaratilishidan qatiy nazar mamlakat hududida yaratilgan barcha yakuniy tovar va xizmatlarning bozor qiymatidir.

YaIM - bu biror-bir mamlakat xududida joylashgan korxona va tashkilotlarda ishlab chirarilgan tovar va xizmatlarning umumiy yig‘indisidan iboratdir.

Yalpi ichki mahsulot 3 xil usul asosida aniqlanadi ;

- Ishlab chiqarish usuli - bunda yalpi ichki mahsulot barcha qo‘shilgan qiymatlar yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

Yalpi ichki mahsulot = $\sum QQ$

- Xarajatlar usuli - bunda yakuniy iste’molchilarning xarajatlari yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

Yalpi ichki mahsulot = C + I + G + Xn

Bu erda S – shaxsiy iste’mol xarajatlari; I– investitsiya xarajatlari ya’ni xususiy ichki investitsiyalar ; G - davlat xarajatlari ya’ni tovar va xizmatlarning davlat xaridi ; Xn – chet elliklarning xarajatlari, ya’ni sof eksport;

- Daromadlar usuli - bunda yalpi ichki mahsulot barcha yakuniy iste’molchilarning daromadlari yig‘indisi sifatida aniqlanadi. Shu bilan birga yalpi ichki mahsulot tarkibiga biznesga egri soliqlar va amortizatsiya ham kiritiladi.

YaIM = amortizatsiya + biznesga egri soliqlar + ijara haqi + foiz ko‘rinishidagi daromadlar + yollanma ishchilarning ish haqi + yakka tartibdagi qo‘yilmalardan daromadlar + korporatsiya foydasiga soliqlar + dividentlar + korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi.

Ko‘plar YaIMni iqtisodiyot ahvolini eng yaxshi ko‘rsatkichi deb hisoblaydilar. AQSh iqtisodiyot vazirligi tomonidan xar uch oyda hisoblanadigan statistik ma’lumotlar iqtisodiy faoliyat natijalarini yagona qiymat ko‘rsatkichida aks ettirishga mo‘ljallangan. YaIM ni aniqroq quyidagicha tasavvur etish mumkin:

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali


- Barcha iqtisodiy agentlarning yalpi daromadi;
- Tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga xarajatlarning umumiyligi hajmi.

YaIM iqtisodiyot ahvolini tavsiflashi mumkin, chunki odamlar kam daromadga qaraganda ko‘prog’ini afzal ko‘radilar. Shunga o‘xshash, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hajmi qanchalik yuqori bo‘lsa, shaxsiy, ishlab chiqarish va davlat ehtiyojlarini qondirish darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

YaIM bir vaqtning o‘zida ham iqtisodiyotdagi daromadni, ham ishlab chiqarishga xarajatlar hajmini o‘lchaydi, chunki oxir-oqibat bu miqdorlar bir xil: butun iqtisodiyot uchun daromadlar hajmi xarajatlar hajmiga teng bo‘lishi lozim. Bunga ishonch hosil qilish uchun, biz milliy hisobchilikni, YaIM va u bilan bog’liq boshqa bir qator ko‘rsatkichlarni o‘lchashning statistik tizimini o‘rganishimiz lozim.

YaIM iqtisodiyotdagi pul oqimlarini ifodalaydi. Biz uni ikki usul bilan hisoblashimiz mumkin. YaIM - bu non ishlab chiqarishdan olingan yalpi daromad bo‘lib, u ish haqi va foyda yiqindisiga teng- pullar doiraviy aylanish chizmasining yuqoridagi yarmi. Shu bilan bir vaqtda, YaIM - bu nonni sotib olishga qilingan xarajatlarning umumiyligi hajmidir-pullar doiraviy aylanish chizmasining pastki yarmi. Shunday qilib, biz yo firmalardan uy xo‘jaliklariga pullar oqimini yoki uy xo‘jaliklaridan firmalarga pullar oqimini olishimiz mumkin.

2021-yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi joriy narxlarda 318,5 trln.so‘m ni tashkil etgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 6,2%ga o‘sdi. YaIM o‘sishi iqtidoiyotning asosiy tarmoqlaridagi –qishloq, o‘rmon va bliqchilik xo‘jaligi 1,8%, sanoatda 8,5%, qurilishda 0,1% va xizmatlar sohasida 8,0% darajasida qayd etilgan ijobil o‘sish sur’atlari hisobiga ta’mindan.



1-rasm. Viloyatlar kesimida YaIM ning o‘sish sur’atlari

Hududlar kesimida yuqori o‘sish sur’atlari Toshkent sh.(14,0%), sirdaryo(12,3%), Toshkent(7,8%) va Qashqadaryo(7,7%) viloyatlarida qayd etildi.

Xulosa qilib aytganda, YaIM narxlardagi hususiyatini oldingisi yoki har qanday boshqasini yillik zahira taqsimotiga muhrlaydi. Har doim YaIMga amaldagi mavjud mahsulotlar hisobga olinadi va qanday darajada mamlakatlarda ishlab chiqarishning o‘sishi mayjudligi bilan

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

narxlarni YaIM darajasi yordamida aniqlanadi.YaIM imkoniyati-bu YaIM bilan to‘laqonli bandlik va iqtisodiyot imkoniyatini boshqa sohalardagi tadqiqotlar bilan o‘zaro va bevosita bog‘liqlik ahamiyatini oshiradi. YaIM hajmini topishda sotilgan va qayta sotilgan mahsulotlarni ko‘p marta hisobga olishlarni bartaraf qilish uchun ,iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan qo‘shilgan qiymatlar yig‘indisi olinadi.Qo‘shilgan qiymat-bu korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan mol yetkazib beruvchilardan sotib olingan va iste’mol qilingan xom-ashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati.Milliy iqtisodiyot rivojlanish darajasini taqqoslash uchun yalpi ichki mahsulot (YaIM)ko‘rsatkichidan foydalaniladi.Yalpi ichki mahsulot umumlashtiruvchi iqtisodiy ko‘rsatkich bo‘lib,u faqat mazkur mamlakat ishlab chiqarish omillaridan foydalangan holda mamlakat ichida yaratilgan tovar va xizmatlar jami qiymatining bozor narxlaridagi ifodasini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.I.Ergashev,N.S.Kasimova,U.K.Muxtorova,G.X.Nazarova,M.E.Jabborov;“Makroiqtisodiyot”- T.:”Iqtisod-Moliya”,2018.
2. Iqtisodiyot-2.Darslik:T.T Jo‘rayev,X.S Asatullayev,Z.G.Allaberganov Toshkent-2021
3. B.Y.Xodiyev, Sh.Sh.Shodmonov.Iqtisodiyot nazariyasi.(Darslik).-T.:”Barkamol fayz media”,2017
4. E.Ergashev., Bakieva I.A.,Fayziev Sh.Sh., Shermuxamedov B.U. “Mikroiqtisodiyot.Makroiqtisodiyot” Darslik. T: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 629 b.
5. Bakieva I.A., Xo‘jaev H.S., Muxitdinova M.S., Fayziev Sh.Sh. “Mikroiqtisodiyot” o‘quv qo‘llanma. T: “O‘FMJN”, 2018.437 b.
6. N.Gregory Mankiv. Principles of Mikroeconomics. 7th edition. 2021. 519 pages.
7. Mankiw N.Gregori. Macroeconomics. 10th edition. Harvard University. NY.:orth Publuthers, 2019. -602 b.